



QALMOQQIR KON BOSHQARMASI ISH UNUMDORLIGI, MEHNAT SALOHIYATI VA TEXNIK IMKONIYATLARI

Dehqonboyeva R.S. Islom Karimov nomidagi TDTU Olmaliq filiali magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada Qalmoqqir kon boshqarmasining ishlab chiqarish unumdorligi , texnik imkoniyatlari ,sharoiti va kelgusi rejalari haqida qisqacha mulohaza qilingan. Konning texnik imkoniyatlarini modernizatsiya qilish rejalari , va shu rejalor orqali ishlab chiqarish unumdorligini oshirish.

Kalit soʻzlar: EKG rusumli ekskavatorlar, BelAZ , modernizatsiya , elektr energiya

Yirik sanoat korxonasi boʻlgan Olmaliq kon-metallurgiya kombinatining Qalmoqqir koni ishlab chiqarish zanjirining eng birinchi boʻgʻini hisoblanadi. Maʼdanlar aynan shu yerdan qazib olinadi va kon ekskavatorlari yordamida elektrovozlarga yuklanib, maydalash uchun Mis boyitish fabrikasiga joʻnatiladi. Qalmoqqir koni, ustki qatlam, sharqiy va markaziy karyerlarni oʻz ichiga olgan. Ustki qatlam karyeri yuza jinslarni ochish ishlari bilan shugʻullansa, sharqiy va markaziy karyerlar togʻ jinslarini qazib olish, siljitish, vazifalarini bajaradi.

Eng boy qazilmalar esa Markaziy karyerda joylashgan. Shuning uchun ham ishchi-xodimlar, texnikalar soni sharqiy va ustki qatlam karyeridan koʻra bu yerda ancha koʻproq. Yaʼni maʼdanlarni yuklashga 8 ta 15 kubli, 7 ta 10 kubli ekskavatorlar safarbar etilgan. Burgʻilash jarayonlarida 7 ta maxsus texnikalar ishlamoqda. Umumiy hisobda 900 ga yaqin ishchi-xodimlar Qalmoqqir konida faoliyat yuritishadi. Qalmoqqir kon boshqarmasi 2023-yil oʻz oldiga kondan 31 million 269 ming kub metr maʼdanlarni qazib olishni reja qilishgan.

Taʼkidlash joizki, “Qalmoqqir” koni dunyodagi eng yirik mis porfirli ochiq konlardan biri hisoblanadi. Bugungi kunda konning uzunligi 4 kmni, eni 2 kmni, chuqurligi 530 metrni tashkil etadi. 2018-2022 yillar davomida Qalmoqqir kon boshqarmasida boshqaruv tizimini avtomatlashtirish boʻyicha muayyan ishlar amalga oshirildi. Bugungi kunga qadar ekskavatorlar, samosvallar va temir yoʻl transporti ishlarini birlashtirgan kon-transport



kompleksini boshqarish bo'yicha yagona dispetcherlik markazi tashkil etildi. Kon transportining ishlashi real vaqtda avtomatlashtirilgan dasturlar tomonidan GPS tizimi orqali nazorat qilinadi.

Bundan tashqari, maxsus "Telegram guruhi" ham tashkil etilib, u orqali kon uskunalari 10 daqiqadan ortiq turib qolsa tezkorlik bilan mas'ul shaxslarga ma'lumot uzatilib, yuzaga kelgan holatni bartaraf etish uchun zudlik bilan qaror qilishadi. Ushbu amalga oshirilgan yangiliklar transport vositalarining bo'sh turishi sonini kamaytirishga, shuningdek, belgilangan yo'nalishlardan tashqarida ishlashini bartaraf etishga imkon berdi. Natijada konda texnologik transport vositalaridan foydalanish samaradorligi ko'payishiga olib keldi.

Olmaliq kon-metallurgiya kombinati yurtimizda yirik korxonalaridan biri hisoblanadi. Kombinat bugungi kunda mis-molibden, rux-qo'rg'oshin, polimetall va oltin tarkibli ma'danlarni qazib olish va qayta ishlash bo'yicha dunyoda 30ta eng yirik korxonalar safidan joy olgan. Kombinat bugungi kunda ochiq va yer osti konlari, ma'dan boyitish va oltin saralash fabrikalari, metallurgiya va sement zavodlariga hamda yirik texnikalariga ega rivojlangan sanoat majmuasiga aylangan. Mutaxassislar OKMKda amaliyotga joriy etilayotgan investitsiyaviy loyihalar haqida keng ma'lumot berishdi. Shuningdek, "Olmaliq KMK" AJ konlari negizida rangli va qimmatbaho metallar ishlab chiqarishni kengaytirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 2020 yil 26 maydagi qarorga muvofiq loyihaning birinchi bosqichida 2021-2025 yillarda 290 ming tonna mis, 38 tonna oltin va 203 tonna kumush ishlab chiqariladi. 2024-2028 yillarda esa loyihaning ikkinchi bosqichida 400 ming tonna mis katodi, 50 tonna oltin va 270 tonna kumush ishlab chiqariladi. Kon ishlarida zahiralar holatini baholash ham muhim ahamiyatga ega. Shu maqsadda Buyuk Britaniyaning "SRK Consulting" kompaniyasi yordamida "Olmaliq KMK" AJ mineral resurslar xomashyo bazasini kengaytirish va zaxiralarni qayta baholashga qaratilgan loyiha joriy qilindi. Ayni kunda Olmaliq loyihasi (Qalmoqqir va Yoshlik I) dunyoda oltin miqdori bo'yicha 1- o`rin, ruda tarkibidagi oltin bo'yicha 2-o`rin, ruda hajmi bo'yicha 3-o`rin (19,5mlrd tonna) ma`dandagi mis miqdori bo'yicha 6 - o`rinni egallamoqda. Biz yuqorida sizga malum qilgan konlar Markaziy Osiyodagi eng oldi qatordagi konlar. Yurtimiz



iqtisodiyotida albatta bunday konlar mavjudligi, Xalqaro Geoiqtisodiyotda muhin o`rin tutadi.



Rasm-1. Qalmoqqir karyerida ish jarayoni.

Hozir Qalmoqqir konida 41 ta ekskavator, 37 ta har biri 130 tonna yuk sig`imiga ega BelAZ rusumli texnika, 17 ta burg`ilash uskunasi ishlayapti. Shu paytgacha kondan jami 1,5 milliard tonnaga yaqin ruda qazib olingan. Bu yil 33,5 million tonna ruda qazib olishni rejalashtirganmiz. Bu ko`rsatkich 2025-yilda 35 million, 2028-yilda 45 million tonnaga yetkaziladi. Aytish mumkinki, konda yetmish yilga yetadigan ruda zaxirasi mavjud, — deydi Qalmoqqir kon boshqarmasi texnik ishlab chiqarish bo`limi boshlig`i A`zam Asqarov. — Faoliyatimizga innovatsion texnologiyalarning tatbiq etilayotgani ishimiz unumdorligi va resurslarni tejash imkonini beryapti. Jumladan EKG rusumli ekskavatorlarning modernizatsiya qilinishi tufayli elektr energiyasini 1,5 baravargacha tejashga erishyapmiz.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi, O'zME davlat ilmiy nashri, T.:2000-2005



2. ↑ Almalikskiy jemchujina, V.Sigedin, Sharq, T.:1999
3. ↑ <https://www.agmk.uz/oz/mining/rudoupravlenie-kalmakyr>